



FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

¹Abduraximova Dilnoza Magrifovna

Toshkent Farmasevtika instituti.

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi,

²Abduqodirov Po'lat Anvarovich.

Toshkent Farmasevtika instituti.

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7703581>

ARTICLE INFO

Received: 25th February 2023

Accepted: 06th March 2023

Online: 07th March 2023

KEY WORDS

Inson huquqlari, huquq tizimi, fuqarolik jamiyati, shaxsiy huquq va erkinliklar, huquqiy davlat, hokimiyat funksiyalari, huquq va erkinliklar kafolati, imtiyozlar, hokimiyatning bo'linish prinsipi.

ABSTRACT

Hozirgi kunda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat qurishning garovi sifatida olib borilayotgan sud-huquq islohotlarida, ayniqsa, sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligi hamda ustuvor hokimiyat sifatidagi obro'-e'tiborini mustahkamlashda sudyalarning malakasi, ularning shaxsiy va malakaviy xususiyatlari muhim ahamiyatga egadir. Davlat fuqarolik jamiyatiga nisbatan vazifasi ijtimoiy zid-diyatlarning keskinlashuviga, kuchlarning bo'linishiga, tartib-sizlikka qarshi harakat qilishdan iborat bo'lgan boshqaruvchi kichik tizim sifatida amal qiladi.

Yurtimizning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishi – bizning strategic maqsadimizdir.

Sh.M.Mirziyoyev.

Mustaqillik sharofati bilan demokratik islohotlar yo'liga kirgan O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etmoqda. Endilikda mamlakatimizda «Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquq va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin». Shu bilan birga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda shaxs siyosiy-huquqiy faolligi ulkan ahamiyat kasb etishi mumkin¹.

Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari qatoriga, birinchidan, turli nodavlat iqtisodiy, tijorat va moliyaviy uyushmalarni; ikkinchidan, davlat tizimiga kirmaydigan va hokimiyat funksiyalariga ega bo'lmagan siyosiy tashkilotlar va birlashmalarni; uchinchidan, maqsadlari va shakllari rang-barang bo'lgan ijtimoiy uyushmalarni; to'rtinchidan, ijtimoiy-madaniy tashkilotlar: oila, diniy konfessiyalar, diniy va etnik jamoalar, mustaqil ommaviy axborot

¹ To'raqulov M.A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda mahalliy davlat xokimiyatining roli. Toshkent: O'zbekiston. 2017. B. 36



vositalari, turli ilmiy va ijodiy jamiyatlar, klublar, qiziqishlar bo'yicha tashkilotlar va hokazolarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar yangi yilda ham izchil davom ettirilishi ma'lum qilindi.²

Fuqarolik jamiyati ijtimoiy tashkilotning mustaqil shakli sifatida davlatsiz normal faoliyat ko'rsata olmaydi³. Davlat fuqarolik jamiyatiga nisbatan vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuviga, kuchlarning bo'linishiga, tartibsizlikka qarshi harakat qilishdan iborat bo'lgan boshqaruvchi kichik tizim sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda fuqarolik jamiyati davlat boshqaruvi ob'ektigina emas, balki o'zini o'zi boshqaruvchi kichik tizim ham hisoblanadi.

Ma'lumki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi ijtimoiy hodisalardir. Professor Z.M.Islomov asosli ravishda ta'kidlaganidek, fuqarolik jamiyati yuzaga kelishi bilangina davlat chinakam huquqiy davlat maqomiga ega bo'la oladi. huquqiy davlat - bu fuqarolik jamiyati mahsuli, uning kafolatidir. Birining ikkinchisiz mavjud bo'lishi mumkin emas.

Huquqiy davlat mezoni va chin ma'nodagi erkin fuqarolik jamiyati bir-biridan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalambor, fuqarolik jamiyatida inson, uning hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy manfaatlari, sha'ni, qadr-qimmat, erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi.

Bu jarayonlarning pirovard natijasi demokratik davlatni barpo etishdan iboratdir. Umuman, demokratik davlat degan ibora o'rinli-o'rinsiz tarzda Shunchalik ko'p takrorlanadiki, men buni boshqacha ifodalashni joiz deb bilaman: biz qurayotgan davlat XXI asr talablariga javob beradigan, diktaturaga yo'l qo'ymaydigan davlat bo'ladi... Shu sababli parlament ham, sud hokimiyati ham, hukumat ham qanchalik kuchli va mustaqil bo'lsa - biz yangi asr talablariga Shunchalik ko'proq javob bera olamiz».

Shu o'rinda huquqiy davlatning asosiy belgilarini sanab o'tish maqsadga muvofiq. Ayrim olimlar huquqiy davlatni shakllantirish quyidagi asosiy printsiplarni hayotga izchil tatbiq etishni talab qilishini ta'kidlaydilar, bular: ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning hukmronligi; davlatning o'zi va uning organlarining qonunlar bilan bog'langanligi; shaxs erkinligi, uning huquq va manfaatlari, sha'ni va qadr-qimmatining poydorligi, ularning qo'riqlanishi va kafolatlanganligi; davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyati; qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish ta'sirchan choralarining mavjudligi kabilardir⁴. Garchi huquqiy davlatning yuqorida keltirilgan tavsiflari uning muhim jihati - jamiyat va davlat munosabatlarining butun tizimi huquqiy asoslarga qurilishi kerakligidan dalolat bersa-da, biroq bu muhim yondashuvning o'zi muammoni to'laligicha hal etib berolmaydi.

² Mirziyoyev SH.M. "Sud-huquq sohasidagi islohotlarni yangi bosqichi" "Yangi O'zbekiston" gazetasi N.7// 2021yil 12-yanvar

³ Jo'rayev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya. 2020. B.43

⁴ Mamatov X.T. Huquqiy madaniyat, uning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni (monografiya). –Toshkent: Yurist-media markazi, 2018. –144 b.



Shuning uchun ham yuridik adabiyotlarda huquqiy davlat belgilarining ancha batafsil ro'yxatlari keltiriladi. Ular orasida quyidagilar muhim sanaladi. Bular:

- davlat institutlari tizimida davlat-hukmli boshqaruvi barcha imtiyozlarining to'planishi;
- hokimiyatning bo'linishi, ya'ni bir davlat kichik tizimi (qonun chiqaruvchi muassasalar, ijro - farmoyish, sud hokimiyati organlari) funktsiyasining boshqasi bilan almashtirilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi;
- fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
- biron-bir bo'g'in yoki institutda hokimiyat vakolatlarining to'planib qolishiga to'sqinlik qiluvchi monopoliyaga qarshi mexanizmlarning yaratilishi;
- konstitutsiyaviy qonunning ustunligi va to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi;
- davlat hokimiyati suverenligini qonunda belgilash va uni hayotga joriy etish;
- saylash huquqi normalari asosida qonun chiqaruvchi organlarni shakllantirish hamda qonunlarda davlat irodasining shakllanishi va ifodalanishini nazorat qilish;
- ichki qonunlarning xalqaro huquq umume'tirof etgan normalar va printsiplarga mos kelishi;
- ijtimoiy munosabatlar barcha sub'ektlarining kimningdir o'zboshimcha qarorlaridan huquqiy himoyalanganligi;
- huquqiy davlatchilikni ta'minlashning namunasi, modeli va vositasi sifatida sudning ustunligi;
- qonunlarning huquqqa mosligi va davlat hokimiyati tizimining huquqiy tashkil etilishi;
- fuqarolar huquq va majburiyatlarining birligi;
- davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyati kabilar.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi tegishli moddalarining, hatto qisqacha tahlili ham, u huquqiy davlatning dasturilamalidir, degan xulosaga olib keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning huquqlarini belgilashda ilk bor davlatning rolini cheklash bilan birga, bu huquqlarga rioya etish va ularni himoya qilishni ta'minlashda davlatning roli va javobgarligini oshirdi. Biroq bu hol davlat fuqarolarning huquq va erkinliklari sohasiga yoki fuqarolik jamiyatida yuzaga keluvchi barcha munosabatlarga aralashishdan o'zini tiyishini anglatmaydi. Aksincha, ob'ektiv zaruratsiz bu munosabatlarga aralashmasdan, u huquq va erkinliklarning suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymasligi shart, chunki ularni amalga oshirish boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga, Shu jumladan ularning umumiy qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart⁵.

Ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatida shaxsning iqtisodiy va siyosiy turmushini erkin, ixtiyoriy asosda qurish ta'minlanadi, umuminsoniy huquqlarga alohida e'tibor beriladi, davlat organlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Vaqti kelib kuchli davlat funktsiyalari asta-sekin tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishdagi faolliklari hozirgidan ko'ra ancha kuchayadi.

Fuqarolik jamiyatida har qanday masala qonunlar, huquqiy normalar asosida adolatli yo'l bilan hal etiladi. Qonun fuqarolik jamiyati hayotidagi barcha munosabatlarni tartibga

⁵ Mamatov X.T. Fuqarolik jamiyatining muhim shartlari. Toshkent. "Sharq" 2017. B. 28-31.



solib turadi. Shu jihatdan, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining negizi, poydevori qonun, qonuniylkdir⁶.

Aslida qonunning ustuvorligi hayotning barcha jabhalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Qonunlarni mensimaslikka hech kimning haqi yo'q. Demokratik huquqiy davlatda va madaniyatli fuqarolik jamiyatida qabul qilingan qonunlar, axloqiy me'yorlar buziladigan bo'lsa, "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" o'tib bo'lmaydi. O'z navbatida, huquqiy davlat qurish ham dargumon bo'lib qoladi. Qonun ustuvorligi fuqarolarning haq-huquqlarini, qadr-qimmatini, erkinligi, sha'ni, g'ururini himoya qilishga, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va mustahkamlashga qaratilgandir. Qonunning kuch-qudrati, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati hayotda uning halol, haqqoniy, odilona tatbiq etilishiga bog'liq bo'ladi. Qonun ijodkorlari va sud-huquq tizimi xodimlari o'z burchlariga xolis yondashib, el-yurt, Vatan, mustaqillik manfaati va taqdirini o'zlari uchun oliy maqsad hisoblab, qonunlarimizni hayotga haqqoniy joriy etsalar, bundan jamiyatimiz ham, fuqarolar ham naf ko'radi, ijtimoiy adolatsizlik, poraxo'rlik, davlat mulkini talash, tanish-bilishchilik, urug'-aymoqchilik, mansab lavozimlaridan shaxsiy boylik orttirish yo'lida foydalanishga urinishlarning oldi olinadi. Bu esa, o'z navbatida, xalqning ruhini ko'taradi, adolatli fuqarolik jamiyati va qonunlarimizga ishonchni mustahkamlaydi.

⁶ Mamatov X.T. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning xususiyatlari. Toshkent: 2018. B. 97-107.